



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'R TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

# YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

## O'ZBEKISTON: INNOVATSIIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI:  
2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF  
ETILGAN DNK

Johann Friedrich Mischer



OZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-QUTUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR, VA OTTDORLU TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQT.uz  
WWW.CONFERENCES.UZ



SENTYABR  
No56

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
17-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-17**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-17**

**ТОШКЕНТ-2023**



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 56-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР**

<b>1. B.B.Sharipova</b>	
O'NLI KASRLARNING YOZILISHI VA O'QILISHI .....	7



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### O‘NLI KASRLARNING YOZILISHI VA O‘QILISHI

**B.B.Sharipova**

XVPYMO‘MM matematika fani o‘qituvchisi  
Telefon:+998914320804,bibijon@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘nli kasrlar va ularning paydo bo‘lishi, ularning yozilishi va o‘qilishi, xossalari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘nli kasrlar, xona birliklari, maxraj, kasr. o‘nli kasrlarning yozilishi , o‘nli kasrlarning o‘qilishi

Kasrlar matematikadagi asosiy tushunchalardan biri bo‘lib ammo bu kasrlarni kelib chiqishi tarixi va ularning hisoblash usullari haqida yetarlicha ma’lumotlar berilmaganligi bois uni qabul qilish va o‘zlashtirishda muammolar kelib chiqadi. Quyida e’tiboringizga mazkur muammoni hal qilishga qaratilgan ishlardan namunalar keltiramiz. Tarixdan ma’lumki, XV asrda Samarqandda Mirzo Ulug‘bek boshchiligidagi “Astronomiya maktabi” vujudga kelgandi. 1425—1428 yillari Samarqand yaqinidagi Obi Rahmat arig‘i yonidagi Ko‘hak tepaligida rasadxona qurilgan bo‘lib Samarqand madrasasidagi tolibi ilmlar o‘zlarining olgan nazariy bilimlarini rasadxonaga kelib amaliyatga qo‘llaganliklari,Ulug‘bek madrasasi va rasadxonasida Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi va boshqa olimlar ishlaganliklari haqida ma’lumotlar mavjud. Ulug‘bek shogirdlaridan G‘iyosiddin Jamshid Koshiy 1427-yilda matematikaga oid «Arifmetika kaliti» («Miftohul-hisob»)asarini yozgan. Bu kitobning 7 ta qo‘lyozmasi ma’lum bo‘lib, ular Berlin, London, Parij, Sankt-Peterburg shaharlarida saqlanmoqda. G‘iyosiddin Jamshid Koshiyning «Arifmetika kaliti» asarining ikkinchi qismida turli kasrlar: suratlari bir bo‘lgan Misr kasrlari, mahraji turli sonlar bo‘lgan Bobil kasrlari, surat va maxrajlari turli sonlar bo‘lgan oddiy kasrlar, ularni yozish usullari, kasrlar ustida amallar bajarish, ularni bir ko‘rinishdan ikkinchi ko‘rinishga keltirish va boshqalar bayon etilgan. Bunda J.Koshiy maxrajlari 10, 100, 1000 va hokazo bo‘lgan kasrlarni, ya’ni o‘nli kasrlarni qaraydi, ularga ta’riflar beradi, «o‘ndan», «yuzdan», «mingdan» va hokazo atamalarini kiritadi. Koshiy o‘nli kasrlarni yozishda butun qismidtan so‘ng vertikal chiziq chizib, so‘ng kasr qismini yozadi yoki butun qismini bir xil siyoh bilan, kasr qismini boshqa siyoh bilan yozadi. O‘nli kasrlar ustida amallar bajarish qoidalarini beradi va ularni juda ko‘p misollar bilan tushuntiradi. Shunday qilib, Koshiy o‘nli kasrlar nazariyasini asoslovchi birinchi olim hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, Yevropada o‘nli kasrlar haqida birinchi asar yozgan oilm Koshiy zamonidan bir yarim asr keyin yashagan gollandiyalik Simon Stevin (1548-1620) hisoblanadi va u Koshiyning kashfiyotidan bexabar edi. Yevropada esa S.Stevindan fransiyalik Bonfils ilgarilab ketgani to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud.



O‘nli kasrlarning hozirgi ko‘rinishda yozilishiga qadar butun qismidan keyin qavs ichida (0) yozish odat bo‘lgan. Masalan, 3,7 ni 3(0)7 ko‘rinishda yoki vertikal chiziq bilan ajratilgan (3|7) yohud turli rangli siyohda yozilgan. Masalan, butun qismi qora, kasr qismi qizil siyohda yozilgan. Butun qismidan keyin vergul ishorasini qo‘yish fanga nemis olimi I.Kepler (1571-1630) tomonidan kiritilgan.

O‘nli kasrlarga ta’rif quyidagicha berilgan.

T a ‘ r i f. Maxraji o‘n yoki uning darajalaridan iborat bo‘lgan kasr o‘nli kasr deyiladi. O‘nli kasrlarni bunday belgilash qabul qilingan:

$$\frac{1}{10} = 0,1; \quad \frac{1}{100} = 0,01; \quad \frac{1}{1000} = 0,001; \quad \frac{3}{10} = 0,3; \quad \frac{3}{1000} = 0,003; \quad 2,15 = 2\frac{15}{100}, \dots$$

O‘nli kasrlarni maxrajsiz yozilganda verguldan o‘ngdagи birinchi xonadagi raqam o‘ndan birlarni, ikkinchi xonadagilari esa yuzdan birlarni va hokazolarni bildiradi. Masalan, 6,732 o‘nli kasrda verguldan keyingi sonlarni turgan o‘rniga qarab kasr ko‘rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:  $\frac{7}{10}$ ;  $\frac{3}{100}$ ;  $\frac{2}{1000}$ ;

O‘nli kasrlar uchun quyidagi qoidalar o‘rinlidir:

1. Har bir o‘nli kasr o‘zidan oldingi o‘nli kasrga nisbatan o‘n marta kattadir. Masalan,

$$0,001 = \frac{1}{1000}; \quad 0,01 = \frac{1}{100}; \quad 0,1 = \frac{1}{10};$$

2. O‘nli kasrlarning maxrajlari 10 ning butun ko‘rsatkichli darajalaridan, suratlari esa bir xonali sonlardan iborat kasrlarning yig‘indisi shaklda ifodalash mumkin. 1 - Q o i d a. O‘nli kasrlarni qo‘shish uchun bir xil xonalari o‘zaro butun sonlar kabi qo‘shilib, yig‘indida kasrlardagi vergulning tagiga to‘g‘ri keltirib butun qismi ajratiladi. 25, 382

$$+ \frac{7,200}{32,582}$$

2-Qoida. O‘nli kasrlarni ayirish uchun kamayuvchining tagiga ayirluvchining verguliga to‘g‘rilab, o‘rin qiymati bir xil bo‘lgan raqamlar bir-birini yozib ayriladi, so‘ngra ayirmani butun qismi vergul bilan ajratiladi.

### M i s o l .

1) 14,273	2) 27,100	3) 27,1-3,235=?
- 5,040	- 3,236	
<hr/> 9,233	<hr/> 23,864	

O‘nli kasrlar quyidagi xossalarga ega:

1.Kasr qismining maxraji 10, 100, 1000 va hokazo bo‘lgan har qanday sonni o‘nli kasr ko‘rinishida ifodalash mumkin.

2.Agar kasr to‘g‘ri kasr bo‘lsa, uning o‘nli yozuvida butun qism 0 deb olinadi.O‘nli ko‘rinishda yozilayotgan sonning kasr qismi maxrajida nechta nol bo‘lsa, suratida ham, verguldan keyin ham shuncha raqam bo‘lishi kerak.

3 .Agar o‘nli kasrning o‘ng tomonida turgan nol olib tashlansa yoki kasrning o‘ng tomoniga nollar yozilsa, berilgan kasrga teng kasr hosil bo‘ladi.

4.Ikkita o‘nli kasrni o‘zaro taqqoslash uchun:

- oldin ulardan birining o‘ng tomoniga nollar yozib, ularning verguldan keyingi raqamlari soni tenglashtiriladi;
- so‘ng vergullar tashlab yuboriladi va hosil bo‘lgan natural sonlar o‘zaro taqqoslanadi. Masalan, 23,54 va 16,9 sonlarini taqqoslaysaylik.

Sonlarning verguldan keyingi raqamlari sonini tenglashtiramiz: 23,54 va 16,90; 2. Vergullarni tashlab yuboramiz va sonlarni taqqoslaysaymiz: 2354 > 1690;

Demak, 23,54 > 16,9.

Maxraji 10, 100, 1000 va hokazo bo‘lgan sonlarni o‘nli kasr ko‘rinishida quyidagicha yoziladi:

-Oldin sonning butun qismi yoziladi;

-so‘ng kasr qismining surati yoziladi va ular bir –biridan vergul bilan ajratiladi.



Masalan, 7,9 -- “7 butun o‘ndan 9” deb, 3,13 --“3 butun yuzdan 13” deb o‘qiladi.

Kasr qismining maxraji 10, 100, 1000 va hokazo bo‘lgan har qanday sonni o‘nli kasr ko‘rinishida ifodalash mumkin. Agar kasr to‘g‘ri kasr bo‘lsa, uning o‘nli yozuvida butun qism 0 deb olinadi.

Masalan, 16/100 soni to‘g‘ri kasr. Bu kasr 0,16 tarzida yoziladi va “0 butun yuzdan 16” deb o‘qiladi.

Demak,  $16/100 = 0,16$

Biz kasrlarning kelib chiqishi yangi o‘lchov birligiga o‘tish bilan bog‘liqligini ko‘rdik, kasr maxraji esa berilgan o‘lchov birligi necha qismga (ulushga) bo‘linganligini ko‘rsatadi. Hozir dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida birtiklarning metrik sistemasi amalda bo‘lib, bu sistemada yangi birliklar boshlang‘ich birliklarni yo 10, 100, 1000 va h. k. marta kamaytirish bilan, yoki 10, 100, 1000 va h. k. marta ko‘paytirish bilan hosil qilinadi. Masalan, 1km=1000m=1000000mm, 1t=1000kg=1000000g va boshqalar. Shuning uchun amaliyotda maxraji 10 ning darajasi bo‘lgan, ya’ni m /10 n ko‘rinishidagi kasrlar bilan ishlash juda qulaydir, bunda m va n — natural sonlar. Bunday kasrlar o‘nli kasrlar deyiladi. Agar birinchi kasrda verguldan keyin n ta raqam, ikkinchisida p ta raqam bo‘lsa (bunda  $n < p$ ), bu kasrlarni bitta maxrajga keltirish uchun birinchi kasrning o‘ng tomoniga p-n ta nol yozish yetarli. U holda ikkala kasrda verguldan keyingi raqamlar soni bir xil bo‘ladi, bu esa ular bitta maxrajga ega ekanligini bildiradi. Bir xil maxrajli kasrlarni qo‘sish va ayirish uchun ular suratlari ustida mos amallar bajariladi. Bu esa o‘nli kasrlarni qo‘sish va ayirishni natural sonlar ustida amallar bajarishga keltiradi. Ikkita o‘nli kasrni qo‘sish uchun:

- 1) bu kasrlarda verguldan keyin o‘nli raqamlar sonini tenglashtirish kerak, buning uchun zarur bo‘lsa, bu kasrlardan biriga o‘ng tomonidan bir nechta nol yoziladi;
- 2) hosil bo‘lgan kasrlarda vergullarni tashlab yuborib, hosil bo‘lgan natural sonlar qo’shiladi;
- 3) yig‘indida qo‘siluvchilarning har birida nechta raqam ajratilgan bo‘lsa, shuncha raqam vergul bilan ajratiladi. O‘nli kasrlarni taqqoslash va ayirish qoidalari xuddi shunday chiqariladi. Yuqorida berilgan ma’lumotlar asosida o‘nli kasrlarni o‘rganish ancha osonlashadi, degan umiddamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Q.Haydarov 5 –sinf matematika darsligi. Toshkent “Yangiyo‘l poligraf servis” 2015.

# **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 17-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2023

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Тадқиқот, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000